

JAMIYATDA ISHLAB CHIQUARISH SALOHIYATIGA MUNOSABATNING SHAKLLANISH BOSQICHLARI

Malik Naimovich Ravshanov

Toshkent davlat transport universiteti professori

Telefon: +998(97) 455 45 47

anvarjontuychiyev@gmail.com

Yuldoshev Samariddin Samandar o‘g‘li

Toshkent davlat transport universiteti mustaqil izlanuvchisi

Telefon: +998(91) 192 49 99

Annotatsiya. Maqolada jamiyat taraqqiyotida ishlab chiqarish salohiyatiga bo‘lgan munosabatning shakllanish bosqichlari tarixiy va nazariy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Dastlabki bosqichlarda ishlab chiqarish resurslarining cheklanganligi, keyingi davrlarda esa industrializatsiya va ilmiy-texnik taraqqiyot natijasida salohiyatning oshishi jarayonlari yoritilgan. Muallif ishlab chiqarish salohiyatiga munosabatning evolyutsion xususiyatlarini ochib berib, uni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bilan bog‘liq holda tushuntiradi. Shuningdek, maqolada zamonaviy iqtisodiyotda ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanishning strategik ahamiyati va innovatsion yondashuvlarning roli alohida ta’kidlangan. Tadqiqot natijalari ishlab chiqarish salohiyatini boshqarish va baholashda nazariy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: ishlab chiqarish salohiyati, jamiyat taraqqiyoti, bosqichma-bosqich rivojlanish, industrializatsiya, ilmiy-texnik taraqqiyot, innovatsiya, samaradorlik.

Insoniyat tarixida dinlarning vujudga kelishi va ularning rivojlanishi iqtisodiy faoliyat jabhasiga bevosita ta’sir o‘tkazgan. Din kishilik jamiyatida nafaqat boshqaruvchilar qo‘lida boshqaruv quroli, balki jamiyat a’zolari o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar, jumladan iqtisodiy munosabatlarda amal qilinuvchi qoidalar to‘plamining vujudga kelishiga sabab bo‘lgan. Islom, xristian, iudaizm va budda dinlarining “dunyo dinlari” darajasiga ko‘tarilishi oqibatida ularning jamiyat xo‘jalik faoliyatiga ta’siri yanada oshgan. Din asoslari hisoblangan muqaddas kitoblarda ma’naviy hayot bilan birga moddiy borliqqa tegishli “ko‘rsatma”, “yo‘riqnoma” va “ta’qiqlar” qo‘yilgan. Ushbu tavsiya va cheklovlar jamiyat a’zolarining iqtisodiy faoliyati mazmunini belgilab bergan.

Ilk o‘rta asrlarda ko‘lami bo‘yicha ulkan hududlarga tarqalib ulgurgan islom dinida kishilar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar shariat qonun-tartiblari majmuasi orqali amalga oshirilgan. Shariatning xo‘jalik yuritish sohasiga tegishli qismlarida mehnat qilish, mehnat

natijalarini sotish, mulkchilik, soliqlar, birgalikda faoliyat yuritish va hokazolar haqida so‘z yuritilgan. Islom dini yordamida tarqoq hududlarning birlashtirilishi va bu hududlarda shariat qonunlari ustunligining ta‘minlanishi nafaqat ma‘naviy sohada, balki iqtisodiy sohada ham muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini yaratdi. Bu muvaffaqiyatlar jamiyatda tashkillashtirish va sinergetik samara natijasida yuz berganligini e‘tirof etish mumkin.

X-XI asrlarga kelib xalifalikning bir necha davlatlarga bo‘linib ketishi natijasida vujudga kelgan siyosiy tarqoqlik va o‘zaro urushlar islom madaniyati va xo‘jalik yuritishida erishilgan muvaffaqiyatlarga putur yetkazdi. Buning oqibatida madaniy rivojlanish darajasi past bo‘lgan boshqa o‘lkalarning jangari xalqlari tomonidan uyushtirilgan tajovuzkorona bosqinlar islom madaniyati yaratib bergan iqtisodiy rivojlanish sur‘atlariga salbiy ta‘sir o‘tkazdi. Bu holat ayrim istisnolardan (Temuriylar davri, Usmonli turklar imperiyasi, Boburiylar davlati va hokazo) tashqari islom sharqi mamlakatlarining XX asr boshlarigacha bo‘lgan rivojlanish darajasini belgilab bergan. Haqiqatan ham islom sharqi mamlakatlarida o‘tgan asrning o‘rtalarigacha iqtisodiy xo‘jalik yuritish tarzida deyarli hech qanday siljish yuz bermaganligini tarix ko‘rsatib turibdi. Albatta, ushbu geohududda yuz bergan qariyb o‘n asrlik tanazzul va turg‘unlikning sabablarini tahlil etish alohida tadqiqotlarning obyekti sanaladi. Ammo shuni ishonch bilan aytish mumkinki, bu yirik hududning so‘nggi asrdagi iqtisodiy o‘sishiga Yevropa sivilizatsiyasi muhim ahamiyat kasb etdi.

Yuqorida qayd etilgan qadimgi dunyo obyektlari – Yunoniston va Rimning tanazzulidan so‘ng Yevropa sivilizatsiyasida yuz bergan turg‘unlik va “zulmat” qariyb o‘n asrga cho‘zildi. Bu “zulmat”ning dastlabki asrlarida tanazzulga uchrayotgan Rim imperiyasining keng hududlarida tarqala boshlagan xristianlik shaxs bebaholigi g‘oyasi bilan millionlab og‘ir mehnat qiluvchilarning qalbiga yo‘l topa oldi. Qadimgi dunyo faylasuflaridan farqli o‘laroq, xristianlik ta‘limoti namoyandalari inson mehnatiga boylik keltiruvchi asosiy manba sifatida qarab, xudoning oldida barcha tengligini ta‘kidlashgan, hamda moddiy ne‘mat keltiruvchi faoliyat natijasida olinuvchi naf albatta, xayriya faoliyati manbai bo‘lishi kerakligi uqtirilgan. Xo‘jalik yuritishning tub asoslaridan biri sanalgan mulkchilik munosabatlari bo‘yicha xristianlik o‘zining alohida nuqtayi nazarini e‘lon qilgan, ya‘ni barcha mulk yakka xudoga tegishli ekanligi e‘tirof qilingan.

Iqtisodiy resurslarga munosabatning sharqona va g‘arbona madaniyatlar ta‘sirida ikki ko‘rinishda shakllanish ildizlari Yevropa va Islom sharqi xalqlarining rivojlanish an‘analariga shu tariqa bog‘liq edi.

Yevropa sivilizatsiyasi boshidan kechirgan “zulmat” asrlari xristianlik ta‘limoti namoyandalari inson mehnatiga boylik keltiruvchi asosiy manba sifatida qaraganliklari sababli poyoniga yetgan. Avval ta‘kidlanganidek, xo‘jalik yuritishning benazir asoslaridan biri bo‘lgan iqtisodiy resurslarga mulkchilik munosabatlari bo‘yicha turli yondashuv

namoyandalari o‘zlarining alohida nuqtayi nazarlariga ega bo‘lib, tadqiqotning mazkur bandi shu yo‘nalishdagi o‘zgacha yondashuvni asoslashga bag‘ishlandi.

Islom dinining paydo bo‘lgandan boshlab keng hududlarga tezlik bilan tarqalishiga asosiy sabablardan biri, albatta, uning inson uchun eng muhim hisoblanuvchi xo‘jalik yuritish tizimiga ijobiy islohotlar olib kelganligidir. Yevropa xristian aqidaparastligidan aziyat chekib turgan bir davrda islom sharq va qisman g‘arb mamlakatlariga xo‘jalik yuritish sohasi va insonning moddiy yaratuvchanlik faoliyatiga erkinlik olib keldi. Boylikka intilish inson uchun xos bo‘lgan xususiyat ekanligi tan olindi, insonning farovonlikka intilishi qo‘llab-quvvatlandi. Shariatda har kim o‘zi xohlagan shar‘iy mashg‘ulot bilan shug‘ullanishi mumkinligi ta’kidlandi. Xristianlikdan farqli o‘laroq, islomda savdo-sotiq bilan shug‘ullanish rag‘batlantirildi, bu kasb-korning fayzliligi alohida qayd etildi. Iqtisodiy munosabatlarda har qanday munosabat o‘zaro kelishuv yo‘li bilan hal qilinishi, xususiyl mulk daxlsizligi e’tirof etildi.



1-rasm. “Islomiy resurs taqsimoti” fenomeni¹²¹

¹²¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, o‘zidan oldingi sivilizatsiyalarning maqsadi o‘zga yurtlarning mulkiga egalik qilish, talon-tarojlik bosqinlari evaziga o‘zgalar kapitalini (jumladan, mehnat resursini) tortib olish bo‘lgan bir holda, islom sivilizatsiyasi xo‘jalik yuritishga bo‘lgan o‘zgacha munosabati bilan qashshoq o‘lkalarni rivojlantirgan. Shu sababli ushbu tadqiqotda, iqtisodiy taraqqiyotni belgilab bergan resurslarga munosabatning islomga xos bu modelini «islomiy resurs taqsimoti fenomeni», deb atash taklif etildi (1-rasmga qarang).

G‘arb tarixchilarining aksariyati xristianlikda o‘rta asrlardan boshlab sudxo‘rlikka, ya’ni pul ko‘rinishidagi kapitalni ishlatish evaziga foiz olishga dav‘at qilgan kalvinistlar¹²² shu tariqa kapitalistik xo‘jalik yuritish asrining boshida turishgan, degan fikrni olg‘a surishadi. To‘g‘ri, ularning ushbu mulohazalari ma’lum bir jihatdan haqiqatga yaqindir.

Kapitalga beriluvchi foizlardan manfaatdorlik, bo‘sh turgan aholi mablag‘larini yana qayta ishlab chiqarishga ishlatish imkoniyatini bergan bo‘lishi mumkin. Islomda esa, bu ta’qiq hozirgacha amalda bo‘lgandek tuyulgani bilan, aslida bunday emas. Islom dini namoyandalari, o‘rta asrlardayoq bu muammoning shar’iy yechimini topishgan, ta’bir joiz bo‘lsa, o‘ziga xos usulni qo‘llashib, kapitalga foizni “halollash”ning uddasidan chiqishgan.

Shariat peshvolari ortiqcha mablag‘i yig‘ilib qolgan kishilarga mablag‘larini turli iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlarga foiz olish sharti bilan emas, balki bo‘lajak foydaning bir qismiga sheriklik qilish sharti bilan berishni tavsiya qilishgan. Aynan mana shu usulning qo‘llanishi evaziga o‘rta asrlarda islom sharqida savdo-sotiq rivojlanib, buning oqibatida g‘arb va sharq xalqlari orasida nafaqat moddiy ne‘matlar almashinuvi, balki madaniy qadriyatlar almashinuvi yuz berdi.

Shariat sherikchilikning to‘rt turini huquqiy tomondan asoslab berdi. Birinchisi, “muvafazo”, ya’ni mol topshirishdagi sheriklik – ishlab chiqarish vositalarini ijaraga berishdagi kooperatsiyani nazarda tutgan; ikkinchisi, “shirkati aynan” – ishni sherikchilik asosida yuritish; uchinchisi, “shirkati tahabbul” – bir xil hunarni birga qo‘shib bajarish; to‘rtinchisi, “shirkati vujud” – sherik bo‘lib mol olib sotish.

Ijtimoiy ishlab chiqarishda resurslarning ahamiyati, ularning moddiy ne‘matlar yaratishdagi beqiyos o‘rni insoniyat taraqqiyotining so‘nggi asrlarida faylasuflar ichidan ajralib chiqqan iqtisodchilar tomonidan alohida ta’kidlab kelingan. Ularning fikricha, insoniyat taraqqiyotining asosida aynan iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish darajasi yotar ekan. Resurslardan oqilona foydalanish ularning cheklanganlik xususiyatidan kelib chiqishi bilan birga, jamiyatda ishlab chiqarish sohasidagi raqobatchilikni rivojlantiruvchi me‘zon ham sanaladi. Chunki, resurslarga bo‘lgan talabning yuqoriligi ulardan tejamkorlik

¹²² Balserak, Jon. Calvinism: A Very Short Introduction (angl.). — Oxford: [Oxford University Press](https://www.oxforduniversitypress.com/), 2017. — [ISBN 978-0198753711](https://www.oxforduniversitypress.com/978-0198753711)

bilan foydalanishni taqozo etadi, bu esa o‘z navbatida, resurslarga egalik qilish va ulardan samarali foydalangan holda ko‘proq moddiy ne‘matlar yaratish yo‘lida tadbirkorlar o‘rtasidagi raqobatchilikni keltirib chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Максимов М. Демографический потенциал и трудовые ресурсы раёна. Возможности мониторинга. // Человек и труд, №2, 1997г;
2. Тодосийчук А. Научно-технический потенциал социально-трудовой сферы. // Экономист, №12, 1997г.;
3. Маммаев Р.А. Методология и методы эффективного использования ресурсного потенциала промышленности региона / Автореф. дис. на соискание ученой степени доктора экономических наук. – СПб.: ФГБОУ ВПО “Санкт-Петербургский государственный инженерно-экономический университет”, 2011 г. – с.43;
4. Новоселова И.Ю. Формирование и развитие природно-ресурсного потенциала региона / Автореф. дис. на соискание ученой степени доктора экономических наук. – М.: ГУУ, 2011 г. – с. 46;
5. Колпакова О.Н. Развитие теоретико-методологических положений по формированию и эффективному использованию интеллектуального капитала предприятия в условиях инновационной экономики / Автореф. дис. на соискание ученой степени доктора экономических наук. – Уфа.: ГОУ ВПО БАГСУ, 2011 г. – с.39
6. Balserak, Jon. Calvinism: A Very Short Introduction (angl.). — Oxford: Oxford University Press, 2017. — ISBN 978-0198753711